

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## SAMARQAND BOLALAR FOLKLOR RAQSLARINING MIFOPOETIK – ETNOGRAFIK TALQINI

Ismoil XUSAINOV,

*Samarqand shahar, 3- son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori*

Erkin XAYDAROV,

*Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15292303>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek bolalar folklor raqs san'atining mifoetik – etnografik tamoyillari Samarqand bolalar folklor raqslari misolida tadqiq qilinadi.

**Калим сўзлар:** тақлид, фольклор, ўтмиш, мавсум, миллий рух, болалар, рухият, маросим, ўйин, анъана.

**Аннотация.** В данной статье исследуются мифопоэтические и этнографические принципы узбекского детского фольклорного танцевального искусства на примере самаркандских детских фольклорных танцев.

**Ключевые слова:** подражание, фольклор, прошлое, сезон, национальный дух, дети, психология, обряд, игра, традиция.

**Annotation.** This article explores the mythopoetic and ethnographic principles of Uzbek children's folklore dance art based on the example of Samarkand children's folklore dances.

**Keywords:** imitation, folklore, past, season, national spirit, children, psychology, ritual, game, tradition.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi “Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora – tadbirlari to'g'risida”gi Farmonida “So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash” [Sh. Mirziyoev 4] dolzarb masala ekanligi alohida ta'kidlandi.

Bugun mustaqil O'zbekistonimizda barcha sohalar kabi xoreografiya ta'limiga, o'zbek milliy raqslarini, folklor san'atini o'rganish va o'rgatishga, o'qitishga katta ahamiyat berilmoqda. Xususan, bolalar raqs san'atiga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalari yangilanmoqda, zamonaviy pedtexnologiyalarga asoslangan yangi avlod darsliklari, monografiyalar yaratilmoqda.

Atoqli folklorshunos olim, professor J.Eshonqulovning “Mif va badiiy tafakkur” kitobida folklor qo'shiq va raqslarning, xalq o'yinlarining, marosim

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

raqslarining badiiy – estetik xususiyatlari haqida muhim ilmiy – nazariy fikrlar aytilgan. “Qo‘shiqning ” [Eshonqulov J. 97:34-35].

O‘zbek bolalar folklor raqs san’atining yosh avlodni tarbiyalash, milliy qadriyatlar va an’analarini asrash, jamiyatda ma’naviy –ma’rifiy muvozanatni, milliy koloritni saqlashdagi qudrati beqiyos. Mohiyatida tarixiy va zamonaviy ruhni, qadimiylk va navqironlik xususiyatlarini mujassamlashtirgan Samarqandning “Beshqarsak”, “Afrosiyob gullari”, “Bog‘ishamol”, “Noni Osiyoi”, “Kadi”, “Kuvi”, “Sibizg‘a”, “So‘zana”, “Ko‘za”, “Tulkicham”, “Tillaqosh”, “Tillakori” kabi bolalar folklor raqslari vatanimiz tarixini, usta hunarmandligining, xalqimizning mehmondo‘stligi, bag‘rikengligi va saxovatining ramzi sifatida butun dunyoni hayratga solmoqda. Muhimi, mazkur raqslar turli millatlar va elatlarga zavq ulashib, millatlararo mehr rishtalarini yanada mustahkamlab, yangi O‘zbekistonning umuminsoniy qadriyatlari ko‘lamini kengaytirmoqda.

Professor M.Bekmurodovning fikricha, “Istiqlol tufayli mamlakatimizda fuqarolarning erkin va ozod taraqqiy etishi uchun keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Xalqimiz o‘zining boy tarixiy merosi, madaniyatining o‘lmas an’analarini tiklash va rivojlantirish, ulug‘ ajdodlarga munosib barkamol avlodni tarbiyalash, vorislik an’analarini qaytadan bog‘lash, tafakkur olamini sog‘lomlashtirishdan iborat g‘oyat katta bunyodkorona faoliyatga kirishdi” [Bekmurodov M. 11:45]. Buyuk allomalarga beshik bo‘lgan O‘zbekistonimiz azal-azaldan mehmondo‘stligi, oqko‘ngilligi, beg‘araz mehr-muhabbati bilan shuhrat qozongan. Ma’lumki, bag‘rikenglik g‘oyasi - turli millat va elatlar vakillarining bir zamin, bir vatanda olijanob g‘oya hamda niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashini anglatadi. Bolalar folklor raqslari orqali ajdodlarimiz hayoti, turmush tarzi, rasm – rusumlari, milliy qadriyatlarining avloddan – avlodga yetkazib kelayotganligi, ular asrlar davomida sayqallanib, boyib borayotganligi haqiqat. Milliy ruh va milliy o‘zlik tuyg‘ularining hamohang ifodalanishi unda xalq xarakterini ochib berishning keng imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

1950 yilda Urgut tumanidagi G‘o‘s qishlog‘ida Ahrorbobo Turobov boshchiligida “Beshqarsak” folklor jamoasi tashkil qilingan. Ilk dastur butun qishloq ahli ishtirokida tayyorlangan. Keksalarning tilidan qo‘shiq, laparlar, o‘lanlar va o‘yinlar yozib olingan, ularga moslab liboslar, taqinchoqlar tanlangan. Asosan, hamma bezaklar, raqs liboslari va buyumlari qo‘l mehnati bilan yaratilgan. Jamoa tezda tilga tushdi, ko‘p yillar davomida tumandagi barcha to‘y marosimlari, viloyatdagi bayram tadbirlari va sayllarda turli mavzudagi raqs -

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

kompozitsiyalarni namoyish etib, nom qozondi. Hamqishloqlarning ma’naviy qo‘llab - quvvatlashlari tufayli jamoaning repertuari takomillashib, yangi talqindagi folklor asarlari hisobiga boyib bordi. Ayniqsa, bolalar ijrosidagi marosim va mavsum raqs - qo‘shiqlari, sahna ko‘rinishlarining muxlislari ko‘paydi.

Bolalarning yoshi, saviyasiga mos, qiziqarli, ularning psixologik qabul qilish darajasiga muvofiq bir qator folklor asarlari qayta ishlandi. Eng muhimi, ularda tarix haqqoniy, hayot esa ham real, ham romantik tasvirlangan bo‘lishi zarur. Ular vositasida bolalar o‘tmishdagi ijtimoiy voqea – hodisalarning ma’nosini tushunishni o‘rganadilar, bu borada o‘z qobiliyatlarini sinaydilar. G‘o‘s qishlog‘ida yashovchi o‘g‘il -qizlarning ota -onasiga qo‘shilib, katta qiziqish bilan raqs – kompozitsiyalarda faol ishtirok etishi alohida bolalar raqs dastasini tuzish ehtiyoji tug‘ildi.

2009 yilda tumandagi 16-son bolalar musiqa va san’at maktabi direktori Aziz Hakimov tashabbusi bilan 9-15 yoshli o‘quvchilardan iborat “Besh qarsak izdoshlari” bolalar folklor guruhi tuzildi. Tajribali pedagog Bo‘ron Nosirov badiiy rahbarligidagi guruh repertuari asosan “Boychechak”, “Latifa”, “Ratollo”, “So‘rilar”, “Fabrikaning qizlari”, “O‘zbekiston qo‘shig‘i”, “ Ho, yallo - yallo qizgina”, “Aylab keling”, “U yoniga tashlab o‘ynasin, bu yoniga tashlab o‘ynasin”, “Beshqarsak”, “Ustoga qarang”, “Kuvi”, “Kadi”, “Doira”, “Samarqand”, “Kichkinajon - kichkina” kabi folklor qo‘shiq – raqslardan iborat. Eng muhimi, barcha asarlar beshta qarsakka asoslangan sanoq tizimiga joylashtirilgan bo‘lib, ijro etishda unga albatta amal qilinadi. Keyingi yillarda guruh a‘zolari viloyat, Respublika va Xalqaro festival-tanlovlarda faol ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni egallab kelishmoqda.

Samarqand viloyati bolalar folklor raqslarining janrlar tizimi va tarkibini, etnografik asoslarini, ma’rifiy - ijtimoiy, hayotiy - axloqiy vazifalarini, badiiy - estetik va ijro xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixni haqqoniy aks ettirish, voqelikni obrazli ifodalash, unutilib borayotgan qadriyatlar, rasm - rusumlar, urf odatlar, udumlar haqida tushuncha berish, o‘tmishning va bugungi kunning tipik hodisalarini biroz bo‘rttirib ko‘rsatish vositasi sifatida bolalar folklor raqslarining nufuzi yuksalib borayotganligi bugun hech kimga sir emas.

“Beshqarsak izdoshlari” raqs dastasi ijrosidagi “Tulkicham” raqsining xoreografiu tavsifi quydagicha: Doira ritmlari ostida ikki guruhga bo‘linishadi. Tillarang libos kiygan, tulkining chiroyli dumini taqqan qizaloq bir – bir bosib, davra o‘rtasiga chiqadi. Davra qo‘shiq-raqs naqaroti bilan boshlanadi.

Obirahmat bo‘ylari,

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

To‘lib oqar suvlari.

Tulkichalar, uloqchalar yayrashib,

O‘ynaydilar quvlashib.

O‘g‘il bolalardan dadilrog‘i o‘ziga oro berib o‘tirgan Tulkixonga savol berishni boshlaydi:

-Tulkicham - tulkicham,

Yuzi to‘la kulgicham.

Ikkinchi guruhdagi qizlar va o‘g‘il bolalar raqs harakatlarida Tulkining dumini o‘ynatishini, o‘lja poylashini ifodalab, davra aylanishadi. Tulkichaning ikki yonida “sakrama” harakati bilan uloqchalar paydo bo‘lishadi. Avvaliga bir oyoqda, keyin ikki oyoqda sakrashadi. Ularning biri qo‘shiqni davom ettiradi:

Orolanib yuribsan,

Kimni kutib turibsan?

Tunda qayga borasan?

Aytishuv jarayonida boshqa ishtirokchilarning yarmi o‘ng tomonga, yarmi chap tomonga qarab, qo‘llarini osmonga havolatib “qanot” harakati bilan raqsga tushishadi. Tulkicha nozlanib, dumchalarini likillatib, tumshug‘ini oldinga cho‘zib “iyak” harakati bilan javob beradi:

- Momom uyiga boraman.

- Momong ne qilib berar?

- Echki sog‘ib sut berar.

Qo‘shiq aytish navbati birinchi guruhga o‘tadi. Ikkinchi guruhdagilar ikkita – ikkita bo‘lib, “sakrama” harakati bilan o‘yinga tushadi. Echki niqobini kiygan ikkita qiz va o‘g‘il bola raqsda echki va uloqchalarning sakrab - sakrab yurishini, o‘t yeyishini xatti - harakatlar, yuz ifodalari va mimika bilan namoyish etadi. Qolganlar qo‘shiqqa jo‘r bo‘lishadi.

Echkisining suti yo‘q,

Ulog‘ining buti yo‘q,

Qo‘yga borsam, qo‘chqor yo‘q,

Uyga kelsam, o‘tin yo‘q.

Ikki guruhdan o‘g‘il bolalar chiqib, o‘tin terish, charchab, terlash holatlarini ko‘rsatishadi. Kampir kiyimidagi qiz qo‘lida rapida bilan tandir qizdirish, yana ikkita qiz xamirni zuvala qilib, tandirda non yopish harakatlarini raqsda ifodalashadi. Tandirni o‘rab olgan qizaloqlar raqs tushib, qo‘shiq aytishadi:

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

O‘tin terdim bir quchoq,  
Momom non yopdi shu choq.  
Elga berdi ellikcha,  
Menga berdi enlikcha,

Guruhning boshqa ishtirokchilari go‘yo pishgan kulchalarni boshqalarga, tomoshabinlarga ham ulashib chiqishadi. Tulkicha orolonib, chiroyli dumini, ko‘zlarini o‘ynatib, hammaning oldiga bir - bir borib, o‘zini ko‘z- ko‘z qiladi.

Ora – orada o‘ljasini ham poylab qo‘yadi. Ikkita o‘g‘il bola bir – biriga qarab, qo‘shiqning davomini aytadi:

Elga berdi uloqcha,  
Menga berdi tirnoqcha.  
Otib urdim eshikka,  
Kallam tegdi teshikka,

Chol kiyimidagi o‘g‘il bola yelkasida xurjun, hassa tayanib, davraning o‘rtasiga chiqadi.

20. Bolalar uning atrofida aylanib, o‘yinga tushishadi. Bir – biriga tulkining pisib kelishini, uloqchalarning tirqirab qochishini ko‘rsatishadi. O‘g‘il bolalardan biri boshini eshikka urib olganday, kulgili harakatlar qilib, qo‘shiq aytadi:

Xizr bobom kelmasmi,  
Uchar to‘nin kiymasmi.  
Uchib ketdi osmonga  
Qaytib tushdi ummonga.

Qizaloqlar jildirab oqayotgan suvlarning qurishini, baliqlar suvsirab, og‘izlarini “kappa kappa” ochishlarini tasvirlaydilar!

Ummon suvi quridi,  
Baliqlari chiridi.  
Tulki - uloq urishdi,  
Suvni soyga burishdi.

Bolalar yarim oy shaklida turib, bir - birlariga suv sepishib Tulkichani o‘rtaga olishadi:

Tulkichalar chuvlashib,  
Yayradilar suvlashib.

Barcha ishtirokchilar baliq tutish, echki va uloqchalarning sakrab - sakrab, maysalarni chimdib tortqilashi, baliqlarning qochishi, suvga kulcha botirib yeyish,

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Tulkichani maqtash harakatlarini ifodalashadi. Hammalari xursand bo‘lib, sho‘x - shodon qiyqiriqlar ostida Tulkicha bilan do‘stlashadilar. Naqarot takrorlanadi:

Qoradaryo bo‘ylari,  
To‘lib oqar suvlari.  
Tulkichalar, uloqchalar yayrashib,  
O‘ynaydilar quvlashib.

Bolalar “shaxmat” tizilida tizilib, oyoqlarida “sakrama”, avval o‘ng yonga, keyin chap yonga va yuqoriga “qarsak” harak Hammalari qo‘l ushlab, raqsni yakunlashadi.

Bolalarning vatan o‘tmishi, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlari va bilimlarini boyitish, estetik didini o‘stirish, ularning ongu-shuuriga milliy o‘zlik, ona yurtga sadoqat tuyg‘ularini singdirish maqsadida mavsum vamarosim raqslariga ko‘proq e‘tibor beriladi. Raqs –kompozitsiyalari vositasida bolalar tabiat va olamdagi o‘zgarishlarni, yangilanishlarni, bir shakldagi narsalarning ikkinchisi bilan almashinish jarayonlarini osonroq tushunadilar.

Mamlakatimizda har bir viloyat va tuman o‘z folklor raqslariga ega va ular bir-biridan farqlanadi. Liboslari, taqinchoqlari, ifoda uslublari bilan har biri o‘z hududiga xos milliy qadriyatlarni ifodalaydi. Folklor raqslarida o‘zbek xalqi o‘zining milliy – madaniy olami chizgilarini, ichki kechinmalari, quvonchu tashvishlarini, orzulari va armonlarini aks ettiradi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek bolalar raqs san‘ati muayyan etnomadaniy guruh va hududga xos bo‘lgan, kelajak avlodlar uchun milliy –madaniy ma’nolar, milliy kolorit tashiydigan turli xil harakatlarni ohang va ritmga mos ravishda birlashtirish natijasida, qadim urf - odatlarni,, an‘analarni saqlab qolish maqsadida paydo bo‘lgan.

Tadqiqotchi Ye.N.Fokinaning qayd etishicha, “Folklor raqs – kompozitsiyalar o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga, yurt tarixiga qiziqishini orttiradi, ularni ijodiy fikrlashga o‘rgatadi”. [Fokina Ye. N. 32:17] Darhaqiqat, asriy an‘analarga ega, ulug‘ ajdodlarimiz qalb qo‘rini berib ijro etgan folklor - etnografik termalar, laparlar, qo‘shiq va raqs orqali yosh avlodni badiiy san‘atning tarixi, serqirra xususiyatlari, o‘ziga xos ifoda usullari bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ibtidoiy odamlarni tabiat bilan bog‘lab turuvchi, ular ruhiyatiga tez ta’sir qiluvchi eng muhim vositalardan biri qo‘shiq - raqs bo‘lgan. Odatda, bunday qo‘shiqlar taqvimiy mehnat kunlari va to‘y marosimlarida tabiatning turli hodisalariga bag‘ishlab ijro etilgan. Mavsumiy qo‘shiq - raqsning ma’lum maqsadga yo‘naltirilganligi ularning musiqiy - she’riy mazmuni va badiiy shakllanishining, harakatlar tizimining

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

asosi hisoblangan. O'quvchilarning ma'naviy – ma'rifiy, badiiy – estetik qobiliyatlarini tizimli rivojlantirib borishda ularning folklor raqs san'ati haqidagi tushunchalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tuproq, ona – Vatanday aziz va muhtasham folklor san'atimiz asrlar mobaynida sayqallanib, o'z jozibasini, go'zal manzaralarini namoyon etib kelmoqda. Uchinchi Renessans poydevorini yaratish hozirgi tarixiy davr uchun ham, ertangi porloq istiqbol uchun ham oliy maqsadlar debochasidir. Zero, so'nggi yetti – sakkiz yilda mamlakatimizda ilm – fan, san'at, ta'lim – tarbiya va qadriyatlar tizimidagi islohotlar yangi sifat va samara bosqichiga ko'tarilganligini dunyo hamjamiyati e'tirof etmoqda.

O'zbek bolalar folklor raqslarining bosh maqsadi – o'sib kelayotgan yosh avlod ongu –shuurida go'zallik va nafosatga, milliy qadriyatlarga va ming yillik an'analarga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, ijodiy fikrlash malakasini rivojlantirishdan iborat. O'sib kelayot yosh avlodning ruhiy-ma'naviy, jismoniy-estetik kamolotida bolalar o'yinlari va raqslari muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar raqslari folklor san'atining yorqin namunasi sifatida, mavzular xarakteridan kelib chiqib, o'zida bolalar o'yinlarini, muayyan ritmik izchillikka asoslangan xatti-harakatlarni, ramziy ma'no kasb etuvchi etnografik detallarni, ohang va tomoshaviylik bilan vobasta harakatli o'yinlar elementlarini yaxlit holda mujassamlashtirgan, o'ziga xos lingvodidaktikaga asoslangan sinkretik hodisadir.

Bolalar ijro etadigan folklor raqslar mazmundor, badiiy va shu bilan birga sodda bo'lishi kerak. Raqslarni sahnalashtirish jarayonida, bevosita tanlangan mavzuning milliy qadriyatlar va an'analalar bilan bog'liqligini yaqindan tanishtirish lozim bo'ladi. Shunda xoreograf – pedagog ularga nafaqat mexanik tarzda harakatlarni o'zlashtirish, balki o'ziga xos xarakteri, ijro uslubini topa olishni ham ko'rsatishi darkor.

Keyingi yillarda folklor san'atiga e'tibor kuchaydi. Zero, o'sib kelayotgan yosh avlod milliy madaniyat muhitida o'zini erkin his qilishi, millat va yurt tarixini, milliy qadriyatlarni hurmat qilishi, avaylab – asrashi uchun uni bilishi, o'rganishi shart. Juda boy an'analarga ega, o'z ildizlari bilan uzoq asrlar tarixiga tutashgan madaniy meros va o'zbek bolalar folklor raqs san'ati beqiyos tarbiyaviy ta'sirga ega ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Olam va odam munosabatlari keskinlashib, dunyo shitob bilan yangilanmoqda. Yangi zamon, yangi fikr va yangicha dunyoqarash davrida istiqbol nafaqat xalqimiz hayotida, balki tafakkurida ham juda katta o'zgarishlar yasadi. Yoshlarimiz bu ulkan mas'uliyatni his qilishlari,

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

o‘zbek bolalar folklor raqslarida o‘zining yorqin ifodasini topgan vatan o‘tmishini, ma’naviyat asoslarini, madaniy merosni zamonaviy bilimlar va ilg‘or xalqaro tajribalar uyg‘unligida o‘rganishlari zarur.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bolalar folklor raqslari hamda o‘yinlari millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklarga hurmat va milliy iftixor tuyg‘usini his qilishni o‘rgatadi, o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақс санъати соҳасида юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. ЎЗА, 2020 й., 4 феврал.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ижодкор зиёлилар билан учрашуви. ЎЗА, 2017 й., 3 август.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар куни муносабати билан йўллаган табриги. ЎЗА, 2024й., 1 октябр.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора – тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. Т.: ЎЗА, 2020, 26 май.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2022 йил, 4 феврал, 25 - сон.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 4 февралдаги “Миллий рақс санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. ЎЗА, 04.02.2020.
7. Khaydarov E. Etymological features of Uzbek folklore terms, International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 7, Issue 10, 2024
8. Khaydarov E. Xusainov I. Genesis and linguodidactic principles of Samarkand children’s folklore dance art, Thailand-Uzbekistan: At the crossroads of world civilizations Vol 2, ISSN: 0208-9513, 2024
9. Xusainov I. On stage interpretations of Samarkand children’s subject dances, Thailand-Uzbekistan: At the crossroads of world civilizations Vol 2, ISSN: 0208-9513, 2024
10. Авдеева Л. Ўзбек миллий рақси тарихидан. М.Турғ‘унбоева номидаги “Ўзбекрақс” миллий рақс бирлашмаси.Т.: 2001.
11. Бекмуродов М.Ўзбек менталитети. Т.: “Фан”, 2010.
12. Ботиров Ш. Фолклор ва фолклор рақсларини сахналаштириш услубиёти. “Ўзбекистон маданияти ва санъати: миллий мерос ва интеграцион жараёнлар”мавзусидаги Республика илмий- амалий анжумани материаллари. Т.: 2024.
13. Г‘афур Н. Халқ ўйинлари, қўшиқлар ва аъёналарга бир назар.Т.: 1992.
14. Горкий М. О детской литературе. Т.: Детгиз, 1952.
15. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. Т.: “Фан”, 1994.
16. Жаҳонгиров Г‘. Ўзбек болалар фолклори. Т.: “Ўқитувчи”, 1975.
17. Жўраев Н. Вақт ва фазо. Т.: “Маънавият”, 2020.
18. Иброҳимова З. Мусаффо олам хайратлари. Т.: “Yangi nashr” нашриёти, 2015.
19. Кароматов Н. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. Тошкент.: Г‘афур Г‘улом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2008.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

20. Крупская Н.К. Мактабгача тарбия тўғрисида. “Ўрта ва олий мактаб”журнали, Т.: 1962, 5 – сон.
21. Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. Т.: “Ўқитувчи”, 1991.
22. Лорд А.Б. Сказител.1 М.: “Восточная литература”, 1994.
23. Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. Тошкент.: “Ўзбекистон” нашриёти, 2008.
24. Мирзаев Т. Фолклор ва унинг асосий хусусиятлари // Ўзбек фолклоршунослиги масалалари. 1-китоб. Тошкент.: 2006.
25. Мирзиёев Ш.Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: «Ўзбекистон», 2021.
26. Муратова С. Миллий рақс воситасида маънавий – эстетик тарбиялашнинг методик асослари. Т.: “LESSONPRESS”, 2021.– Б.116 - 117.
27. Раззоқов Х. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди.Т.: “Ўқитувчи” ,1998.
28. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах .: “Санзор” нашриёти, 2006.
29. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 5-ж. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат нашриёти, 2003.
30. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12-жилд. Тошкент.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006.
31. Ўзбекистон халқлари тарихи. Т.: “Фан”, 1993.
32. Фокина Е.Н. Хореография в общеобразовательной школе как средство гармонизации развития личности: авторефер.канд.дисс. М.: 2002.
33. Хусайнов И. Самарқанд болалар фолклор рақсининг мусиқа санъати билан уйғунлиги Т.: Сўз санъати халқаро журнали 2024
34. Хусайнов И., Хайдаров Э. Ўзбек болалар фолклор рақс санъатининг линтвокултурологик ва бадий - эстетик хусусиятлари (Самарқанд вилояти болалар фолклор рақс санъати мисолида) Т.: Сўз санъати халқаро журнали 2024
35. Намроева Н. Мирзо М. Миллий ўзликни англашда рақс санъатининг инсон рухиятига таъсири. Т.: 2020.
36. Намроева Н.Ўзбек болалар фолклор рақс санъати: анъанавийлик ва замонавийлик. Т.: «Замон- полиграф», 2023.
37. Эшонкулов Ж. Миф ва бадий тафаккур. Тошкент.: “Фан” нашриёти, 2019. Б.-34-3
38. <https://izoh.uz/uz/word/lapar>
39. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Terma>